

CHOCH TARIXINING YOZMA MANBALARDAGI AKS ETISHI VA UNING ILMIY TALQINI

Abdullayeva Ozodaxon Murodxon qizi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti

Tarix fakulteti “Arxeologiya va etnologiya” kafedrası

“Arxeologiya” mutaxassisligi 2- kurs magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Choch (qadimgi Toshkent) tarixining yozma manbalardagi aks etishi va ularning ilmiy talqini yoritilgan. “Avesto”, qadimgi yunon-rim, xitoy, arab va turkiy manbalardagi ma’lumotlar tahlil qilinib, Qang‘ davlati, Kangkha, Yuni, Shosh va Binkat toponimlarining tarixiy-geografik o‘rni aniqlashtiriladi. Shuningdek, Choch vohasida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar bosqichlari va ularning ilmiy ahamiyati ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *Choch, Toshkent vohasi, Qang‘ davlati, Kangkha, Shosh, Binkat, Yuni, yozma manbalar, arxeologik tadqiqotlar, shahar madaniyati*

Аннотация: *В статье рассматривается история Чача (древнего Ташкента) на основе письменных источников и их научной интерпретации. Анализируются сведения из «Авесты», античных, китайских, арабских и тюркских источников, а также вопросы локализации государства Кангюй, Кангхи, Юни, Шаша и Бинкета. Особое внимание уделено этапам археологического изучения Чачского оазиса и их значению для реконструкции городской истории региона.*

Ключевые слова: *Чач, Ташкентский оазис, государство Кангюй, Кангха, Шаш, Бинкет, Юни, письменные источники, археологические исследования, городская культура*

Abstract: *This article examines the history of Chach (ancient Tashkent) based on written sources and their scholarly interpretations. Data from the Avesta, Greco-Roman, Chinese, Arabic, and Turkic sources are analyzed, focusing on the localization of Kangju, Kangkha, Yuni, Shash, and Binkat. The paper also highlights the main stages of archaeological research in the Chach oasis and their contribution to understanding the development of urban culture in Central Asia.*

Keywords: *Chach, Tashkent oasis, Kangju state, Kangkha, Shash, Binkat, Yuni, written sources, archaeological research, urban culture*

Tadqiqot metodologiyasi va tahlil usullari

Mazkur tadqiqot Choch (qadimgi Toshkent) tarixini yozma manbalar va arxeologik materiallar asosida kompleks o‘rganishga qaratilgan. Ish jarayonida tarix fanida keng qo‘llaniladigan umumilmiy va maxsus metodlar uyg‘unligidan foydalanildi.

Avvalo, tarixiy-tahliliy usul yordamida “Avesto”, qadimgi yunon-rim mualliflari, xitoy yilnomalari, turkiy runik bitiklar hamda o‘rta asr arab-fors manbalarida Choch hududi, Qang‘ davlati, Kangkha, Yuni, Shosh va Binkat toponimlariga oid ma‘lumotlar tanqidiy tahlil qilindi. Har bir manba o‘z davrining siyosiy, madaniy va mafkuraviy konteksti doirasida baholanib, undagi xabarlarining ishonchliligi va tarixiy ahamiyati aniqlandi.

Tadqiqotda qiyosiy-tarixiy metod muhim o‘rin tutdi. Turli davr va madaniy muhitda yaratilgan yozma manbalardagi atamalar, toponimlar va etnonimlar o‘zaro solishtirilib, ularning fonetik va semantik yaqinligi asosida tarixiy aynanlik masalalari ko‘rib chiqildi. Xususan, Kangkha–Qang‘, Yuni–Shosh–Shi va Bityan–Binkat nomlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ushbu metod orqali tahlil qilindi.

Shuningdek, manbashunoslik metodi asosida yozma manbalarning kelib chiqishi, mualliflik pozitsiyasi, xronologiyasi va maqsadi aniqlanib, ularning ma‘lumot berish imkoniyatlari va cheklovlari baholandi. Bu yondashuv manbalardagi qarama-qarshi yoki ziddiyatli xabarlarni tarixiy haqiqat nuqtayi nazaridan izohlash imkonini berdi.

Arxeologik ma‘lumotlarni tahlil qilishda tarixiy-arxeologik va stratigrafik yondashuv qo‘llanildi. Qanqa, Shoshtepa, Mingo‘rik, Oqtepa kabi yodgorliklardan olingan materiallar yozma manbalardagi ma‘lumotlar bilan qiyoslanib, Choch vohasida shahar madaniyatining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari aniqlashtirildi.

Bundan tashqari, interdisiplinar yondashuv doirasida lingvistika, numizmatika va tarixiy geografiya fanlari yutuqlaridan foydalanildi. Numizmatik materiallar orqali Shosh va Binkatning siyosiy-iqtisodiy markaz sifatidagi mavqei aniqlanib, lingvistik tahlil yordamida toponimlarning tarixiy evolyutsiyasi yoritildi.

Umuman olganda, qo‘llanilgan metodlar majmui Choch tarixini yozma va moddiy manbalar asosida tizimli va kompleks tarzda tahlil qilish imkonini berdi hamda tadqiqot xulosalarining ilmiy asoslanganligini ta‘minladi.

Kirish

Toshkent (qadimgi Choch, Shosh) tarixini chuqur o‘rganish uni faqat shahar doirasida emas, balki Sirdaryo havzasi va butun Markaziy Osiyo tarixiy-madaniy makoni kontekstida tahlil qilishni talab etadi. Shahar va voha o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, sug‘orma dehqonchilik tizimining rivoji, savdo yo‘llari va siyosiy markazlarning almashuvi Choch tarixining muhim jihatlaridan hisoblanadi. Yozma manbalar va arxeologik materiallarning

qiyosiy tahlili Toshkent vohasida shahar madaniyatining qadimiy va uzluksiz ekanini ko‘rsatadi.

Mazkur maqolada “Avesto”, antik mualliflar, xitoy yilnomalari, turkiy runik bitiklar va o‘rta asr arab-fors manbalari asosida Choch tarixining asosiy bosqichlari tahlil qilinadi hamda ushbu manbalarning ilmiy talqinlari yoritiladi.

Qadimgi manbalarda choch hududi

Zamonaviy ilmiy qarashlarga ko‘ra, miloddan avvalgi I ming yillikda O‘rta Osiyoda yashagan sak qabilalari bronza davrida shakllangan Andron madaniyatining etnik va madaniy davomchilari bo‘lgan. Qadimgi fors manbalarida ular “sak” nomi bilan tilga olinib, ayrim yunon mualliflari tomonidan skiflar bilan tenglashtiriladi. Shu bilan birga, saklar nafaqat ko‘chmanchi, balki o‘troq dehqonchilik va shahar madaniyati bilan bog‘liq bo‘lgan hududlarda ham yashagan.

“Avesto” matnlarida tilga olingan “baland va muqaddas Kangkha” tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchilarning aksariyati bu nomni aniq geografik hudud, balki sak-tura qabilalari uchun muhim siyosiy-diniy markaz sifatida talqin qiladi. Ushbu ma’lumotlar Yaksart (Sirdaryo) ortida shahar markazlari mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi.

Kangkhaning joylashuvi borasida ilmiy bahslar mavjud. S.P. Tolstov uni Xorazm bilan bog‘lagan bo‘lsa-da, V.V. Bartold va uning izdoshlari Kangkha mamlakatini Sirdaryoning o‘rta oqimi, ya’ni hozirgi Toshkent vohasi bilan aynanlashtirishni ma’qul ko‘radilar. Bu fikr keyingi arxeologik va manbashunoslik tadqiqotlari bilan mustahkamlanmoqda.

Xitoy manbalarida qang‘ davlati va yuni hududi

Miloddan avvalgi II asrdan boshlab Markaziy Osiyodagi siyosiy birliklar haqida muhim ma’lumotlar qadimgi xitoy manbalarida uchraydi. Ushbu manbalarda Qang‘ davlati yarim ko‘chmanchi siyosiy tuzilma sifatida tavsiflanadi. Qang‘ hududida shaharlar mavjud bo‘lgani, aholining bir qismi o‘troq dehqonchilik bilan shug‘ullangani qayd etiladi.

Qang‘ davlatining poytaxti sifatida tilga olingan Bityan shahri hamda unga bo‘ysunuvchi Yuni mulki ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan Toshkent vohasi bilan bog‘lanadi. Ayniqsa, Yuni toponimining Sirdaryo bo‘yida joylashgani haqidagi xabarlar bu hududning Choch bilan aynanligini ko‘rsatadi. Xitoy manbalarida qayd etilgan “Shi” viloyati nomi ham keyinchalik arab manbalarida uchraydigan “Shosh” atamasi bilan fonetik va semantik jihatdan mos keladi.

Qang‘ tarkibida besh muxtor mulkning mavjud bo‘lgani haqidagi ma’lumotlar ushbu davlatning murakkab siyosiy tuzilishga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Ularning joylashuvi borasida turli ilmiy qarashlar mavjud bo‘lsa-da, Yuni mulkining Toshkent vohasida joylashgani deyarli umumiy e’tirof etilgan.

Turkiy va arab manbalarida choch

Islomgacha bo‘lgan davrda Choch hududi haqida muhim ma’lumotlar qadimgi turkiy runik bitiklarda ham uchraydi. Orxon-Enasoy yodgorliklarida Choch va unga tutash hududlar Turk xoqonligining g‘arbiy chegaralari doirasida tilga olinadi. Kengu-Tarban toponimi Choch va Sirdaryo havzasi bilan bog‘liq siyosiy aloqalardan dalolat beradi.

Arab istilosi davriga oid manbalarda Shosh viloyati va uning hukmdorlari haqida batafsil ma’lumotlar uchraydi. Al-Balazuriy va at-Tabariy asarlarida Tarband nomi eslatilib, u Shosh hukmdorining vaqtincha qarorgohi bo‘lgan bo‘lishi mumkinligi ta’kidlanadi. Shu bilan birga, Shoshning doimiy siyosiy markazi Toshkent vohasida joylashgani haqidagi qarash ustunlik qiladi.

IX–X asrlarga oid arab-fors geograflari asarlarida Shosh viloyati yirik shaharlar tizimiga ega bo‘lgan hudud sifatida tasvirlanadi. Ibn Xurdadbeh, Istaxriy, Ibn Havqal va Muqaddasiy Shoshni sug‘orma dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo rivojlangan mintaqasi sifatida ta’riflaydi.

Binkat va toshkent nomining shakllanishi

O‘rta asr yozma manbalarida Shosh viloyatining poytaxti sifatida Binkat shahri tilga olinadi. Numizmatik ma’lumotlar Binkatda zarbxona faoliyat ko‘rsatganini va bu shahar IX–X asrlarda mintaqaviy markaz bo‘lganini tasdiqlaydi. Tangalarida “ash-Shash”, “Madinat ash-Shash” va “Binkat” nomlarining uchrashi bu atamalarining bir markazga nisbatan ishlatilganini ko‘rsatadi.

X asrdan boshlab Toshkent nomi manbalarda paydo bo‘la boshlaydi. Bu nom Shoshkand shaklining turkiylashuvi sifatida talqin qilinadi. Abu Rayhon Beruniy tomonidan berilgan xalqona izohlar keyingi tadqiqotchilar tomonidan qayta ko‘rib chiqilgan bo‘lib, nomning etimologiyasi ko‘proq siyosiy va madaniy ramziy ma’noga ega ekanligi ta’kidlanadi.

Arxeologik tadqiqotlar va ularning ahamiyati

XIX asr oxiridan boshlab Toshkent vohasida olib borilgan arxeologik izlanishlar yozma manbalardagi ma’lumotlarni moddiy dalillar bilan to‘ldirdi. Qanqa, Shoshtepa, Mingo‘rik, Oqtepa kabi yodgorliklarda olib borilgan qazishmalar Choch hududida shahar madaniyati bronza davridan o‘rta asrlargacha uzluksiz rivojlanganini ko‘rsatdi.

Sovet davrida va mustaqillik yillarida olib borilgan tizimli tadqiqotlar natijasida Qanqa qadimgi Chochning muhim siyosiy markazlaridan biri bo‘lganligi ilmiy asosda tasdiqlandi. Zamonaviy tadqiqotlar esa ushbu hududda hunarmandchilik, metallurgiya va savdo infratuzilmasi rivojlanganini ko‘rsatmoqda.

Xulosa

Yozma manbalar va arxeologik dalillarni kompleks tahlil qilish Choch vohasining Markaziy Osiyo tarixiy jarayonlarida tutgan o‘rni nihoyatda muhim bo‘lganini ko‘rsatadi.

“Avesto” matnlarida tilga olingan Kangkha haqidagi ma’lumotlardan boshlab, qadimgi yunon-rim, xitoy, turkiy va arab-fors manbalarigacha bo‘lgan yozma xabarlar Sirdaryoning o‘rta oqimi va Toshkent vohasida qadimdan siyosiy, diniy va iqtisodiy markazlar shakllanganini tasdiqlaydi. Bu hududda sak va kanq qabilalari negizida yuzaga kelgan Qang‘ davlati Markaziy Osiyodagi yirik harbiy-siyosiy tuzilmalardan biri sifatida namoyon bo‘lgan.

Xitoy manbalarida qayd etilgan Qang‘ davlati va uning tarkibidagi Yuni mulkining Toshkent vohasi bilan aynanlashtirilishi, Shosh va Shi toponimlari o‘rtasidagi fonetik-mantiqiy yaqinlik, shuningdek, Bityan va Binkat kabi shahar nomlarining tarixiy davomiyligi Choch hududida shaharsozlik an‘analari uzluksiz rivojlanganini ko‘rsatadi. Bu jarayon ko‘chmanchi va o‘troq madaniyatlarning o‘zaro ta’siri asosida shakllangan bo‘lib, Chochni Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining muhim bo‘g‘iniga aylantirgan.

Arab-fors geograflari va tarixchilari asarlarida Shosh viloyatining sug‘orma dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo rivojlangan mintaqqa sifatida tasvirlanishi, numizmatik materiallar bilan birgalikda, Binkat shahrining IX–X asrlarda mintaqaviy siyosiy va iqtisodiy markaz bo‘lganini aniq tasdiqlaydi. Toshkent nomining shakllanishi esa Shoshkand atamasining turkiylashuvi jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, bu hududda etnik va lingvistik jarayonlar uzviy davom etganini ko‘rsatadi.

XIX asr oxiridan to hozirgi kungacha olib borilgan arxeologik tadqiqotlar yozma manbalarda aks etgan ma’lumotlarni moddiy dalillar bilan mustahkamlab, Choch vohasida shahar madaniyati bronza davridan o‘rta asrlargacha uzluksiz rivojlanganini ilmiy asosda isbotladi. Qanqa, Shoshtepa, Mingo‘rik va boshqa yodgorliklar misolida aniqlangan stratigrafik qatlamlar ushbu hududning uzoq muddatli urbanistik taraqqiyotini yaqqol namoyon etadi.

Umuman olganda, Choch vohasi nafaqat alohida bir shahar tarixini, balki Markaziy Osiyodagi kengroq tarixiy-madaniy jarayonlarni aks ettiruvchi muhim hudud hisoblanadi. Yozma va arxeologik manbalarni o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish Choch tarixining murakkab va ko‘p qatlamli manzarasini tiklash imkonini beradi hamda Toshkentning Markaziy Osiyo sivilizatsiyasidagi qadimiy va barqaror o‘rnini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bartold V.V. Сочинения. Т. II. Ч. 1. Средняя Азия в древности и средние века. – М.: Наука, 1963. – С. 45–78.
2. Tolstov S.P. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М.: Изд-во АН СССР, 1962. – С. 112–140.

3. Masson M.E. Очерки истории древнего Ташкента. – Ташкент: Фан, 1954. – С. 9–56.
4. Buryakov Yu.F. Древние города Чача. – Ташкент: Фан, 1975. – С. 23–89.
5. Вернштам А.Н. Очерк истории гуннов. – Л.: Изд-во ЛГУ, 1951. – С. 134–160.
6. Klyashtorny S.G. Древнетюркские рунические памятники как исторический источник. – Л.: Наука, 1964. – С. 97–121.
7. Bolshakov O.G. Города Средней Азии IX–XII вв. – М.: Наука, 1973. – С. 58–85.